

Husenova Aziza Sharipovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
dotsenti, pedagogika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD)
aziza_husenova@buxdpi.uz

BLUM TAKSONOMIYASINING BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA QO'LLANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada amerikalik psixolog va pedagog Binyamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan o'quv maqsadlari taksonomiyasining mazmuni, uning kognitiv sohadagi bosqichlari hamda boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilinadi. Taksonomiyaning "bilish", "tushunish", "qo'llash", "tahlil", "sintez" va "baholash" kabi bosqichlari asosida dars jarayonini rejalashtirish va mazmunan boyitishning metodik yondashuvlari yoritiladi. Maqolada shuningdek, o'quvchilarning tafakkurini bosqichma-bosqich rivojlantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda Blum taksonomiyasi samarali vosita sifatida tavsiflanadi.

Kalit so'zlar: Taksonomiya, ta'lim, bilim, tafakkur, savodxonlik, bosqich, metodika, mazmun, ko'nikma, tahlil, sintez, baholash, tushunish, qo'llash, yondashuv, ijodiy fikr.

ПРИМЕНЕНИЕ ТАКСОНОМИИ БЛЮМА НА УРОКАХ ГРАМОТНОСТИ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ

Аннотация. В этой статье анализируется содержание таксономии целей обучения, разработанной американским психологом и педагогом Биньямином Блюмом, ее этапы в когнитивной области, а также ее роль в формировании грамотности чтения в начальных классах. Освещаются методические подходы к планированию и содержательному обогащению процесса урока на основе таких этапов таксономии, как "знание", "понимание", "применение", "анализ", "синтез" и "оценка". В статье также описывается таксономия Блюма как эффективный инструмент для постепенного развития мышления учащихся и формирования навыков критического и творческого мышления.

Ключевые слова: таксономия, образование, знания, мышление, грамотность, стадия, методология, содержание, навыки, анализ, синтез, оценка, понимание, применение, подход, творческое мышление.

APPLICATION OF BLUM TAXONOMY IN ELEMENTARY READING LITERACY CLASSES

Annotation. This article analyzes the content of the taxonomy of educational goals developed by the American psychologist and educator Binyamin Blum, its stages in the cognitive sphere and its role in the formation of Reading Literacy in elementary grades. On the basis of such steps of taxonomy as "knowledge", "understanding", "application", "analysis", "synthesis" and "evaluation", methodological approaches to planning and content enrichment of the course process are highlighted. The article also describes Blum taxonomy as an effective tool in the gradual development of reader thinking, the formation of critical and creative thinking skills.

Keywords: taxonomy, education, knowledge, thinking, literacy, stage, methodology, content, skills, analysis, synthesis, evaluation, understanding, application, approach, creative thought.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida 2030-yilga kelib xalqaro baholash reytinglarida mamlakatimizni jahonning eng ilg'or 30 ta davlati qatoriga kiritish maqsadi belgilangan[1]. Shu bilan birga, xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan milliy baholash tizimini shakllantirish zarurligi ta'kidlangan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda. Ushbu islohotlarning mazmun-mohiyati dars jarayonlarini takomillashtirish,

o'qituvchining metodik yondashuvini yangilash, kam resurs va kuch bilan yuqori natijaga erishishni ta'minlashga qaratilgan. Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimining eng muhim bosqichlaridan biri bu boshlang'ich ta'limdir. Ayniqsa, o'qish savodxonligi darslari orqali o'quvchilar nafaqat harf tanish, so'z o'qish va yozishni o'rganadilar, balki tafakkur qilish, tushunish, baholash kabi muhim kognitiv kompetensiyalarni egallaydilar[3]. Bu jarayonda o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash va ularni yuqori bosqichlarga olib chiqishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday ilg'or yondashuvlardan biri Binyamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan "Blum taksonomiyasi" bo'lib, uni boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida qo'llash orqali o'quvchilarning fikrlash darajasini tizimli ravishda rivojlantirish mumkin.

Amerikalik mashhur psixolog va pedagog Binyamin Blum tomonidan ishlab chiqilgan o'quv maqsadlari taksonomiyasi zamonaviy ta'lim tizimida keng qo'llanilib kelinmoqda. Bu taksonomiya o'quvchilarning bilish faoliyatini bosqichma-bosqich rivojlantirishni ko'zda tutgan bo'lib, har bir bosqichda o'quvchining bajaradigan konkret aqliy harakatlari aniqlik bilan tavsiflanadi. Asosiy e'tibor bilish darajalarining murakkablik bo'yicha ketma-ket rivojlanishiga qaratiladi.

Taksonomiya — bu mavjud bilim, obyekt va jarayonlarni tasniflash, tizimlashtirish nazariyasidir. Blum taksonomiyasi — bu ta'limiy maqsadlarni tartiblangan shaklda tasniflovchi nazariy tizim bo'lib, u 1956-yilda pedagog olim Binyamin Blum boshchiligidagi guruh tomonidan ishlab chiqilgan. Taksonomiya asosan 1)kognitiv (bilim), 2) affektiv (hissiy) va 3) psixomotor (amaliy) sohalarni o'z ichiga oladi. Eng ko'p ishlatiladigani kognitiv soha bo'lib, u olti bosqichdan iborat[9]:



1- rasm. Kognitiv sohaning 6 bosqichi.

1. **Bilish bosqichi (Knowledge).** Bu dastlabki tafakkur bosqichi bo'lib, o'quvchi asosiy atamalar, qoidalar, tushunchalar, faktlar, kategoriya va tasniflarni eslab qoladi hamda takrorlay oladi. Shuningdek, abstract bilimlar – tamoyillar, aksiomalar, umumiy fikrlar, struktura va teoremlarni tanib oladi. O'quvchi asardagi voqealarni bayon qila oladi, faktik ma'lumotlarni eslaydi.

2. **Tushunish bosqichi (Comprehension).** Ushbu bosqichda o'quvchi ma'lumotlarni nafaqat eslab qoladi, balki ularni anglaydi, qayta tuzadi va ifoda etadi. Chizmalar, jadvallar, sxemalar, matnlar bilan ishlay oladi, ularni boshqa shakllarga o'zgartiradi (masalan, matnni obrazga aylantirish). Shuningdek, mavjud ma'lumotlar asosida taxminlar yurita oladi, kelajakdagi natijalarni oldindan tasvirlab bera oladi.

3. **Qo'llash bosqichi (Application).** Bu bosqichda o'quvchi ilgari o'rgangan bilimlarini an'anaviy hamda noan'anaviy vaziyatlarda to'g'ri qo'llay oladi. Model, formula yoki ko'rsatmalarga asoslanib bilimdan foydalanish ko'nikmasi shakllanadi. Bu bosqich amaliy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

4. **Tahlil bosqichi (Analysis).** Mazkur darajada o'quvchi axborotni qismlarga ajrata oladi, ularning o'zaro aloqadorligini aniqlaydi. Mantiqiy fikrlash asosida xatolarni aniqlash, faktlar va xulosalar orasidagi farqlarni topish, sabab-oqibat bog'liqliklarini ko'rsatish malakalari rivojlanadi. O'quvchi ma'lumotlarning muhimligini baholay oladi.

5. **Sintez bosqichi (Synthesis).** Bu bosqich ijodiy tafakkurni o'z ichiga oladi. O'quvchi yangi g'oya, model yoki rejani ishlab chiqadi, bir nechta fan sohasidagi bilimlarni birlashtirib, yaxlit obraz yaratadi. Tajriba o'tkazish rejasini tuzish, turli manbalar asosida yangi jadval yoki sxema yasash kabi topshiriqlar ushbu bosqichga kiradi.

6. Baholash bosqichi (Evaluation). Eng yuqori tafakkur bosqichi bo'lib, bunda o'quvchi ma'lumotlarga asoslanib mustaqil xulosa chiqaradi, qaror qabul qiladi. Ichki va tashqi mezonlarga asoslanib baho beradi, baholash mezonlarini ajratib oladi hamda ularga rioya qiladi. Faktlar bilan baholovchi fikrlar orasidagi farqni tahlil qiladi, xulosalarning asoslanganligini tekshiradi.

Bu bosqichlar ketma-ketlikda murakkablashib boradi va har biri o'ziga xos bilish faoliyatini talab qiladi. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishda ushbu taksonomiyani izchil qo'llash ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, o'quvchilarni mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashga o'rgatadi. Mazkur bosqichlar quyi sinf o'quvchilarining aqliy faoliyatini o'stirishda qo'llansa, ularning mustaqil fikrlashi, mantiqiy tahlil qilish qobiliyatlari bosqichma-bosqich shakllanadi.

Boshlang'ich sinfda o'qish savodxonligi darslari o'quvchining bilim olishga asos soluvchi bosqichi hisoblanadi. Bu darslarda faqat harf va so'z o'qish emas, balki matnni tushunish, mazmunni anglash, mantiqiy fikrlash, o'z fikrini ifoda etish kabi ko'nikmalar shakllanadi. Aynan shu yerda Blum taksonomiyasidan foydalanish zarurati yuzaga keladi. Masalan, matn o'qish jarayonida quyidagi yondashuvlarni tatbiq etish mumkin[8].

Bilish bosqichi	Tushunish bosqichi	Qo'llash bosqichi	Tahlil bosqichi	Sintez bosqichi	Baholash bosqichi
O'quvchilar matnda keltirilgan asosiy faktlarni (qahramon ismi, joy nomi, sodir bo'lgan voqea) eslab qolishadi	Matn mazmunini tushuntirib berish, voqeani o'z so'zlari bilan aytib berish topshiriqlari beriladi	O'quvchilar matndan olgan xulosani hayotiy vaziyatlarda qo'llashga harakat qilishadi, masalan, odob-axloq qoidalarini voqea bilan bog'lash	Matndagi qahramonlar harakatlarini tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash	O'quvchilar matnga asoslangan yangi hikoya to'qish, davom yozish, boshqa yakun taklif qilish orqali ijodkorlikni namoyon etishadi	Qahramonlar harakatlariga baho berish, nima to'g'ri va nima noto'g'ri ekanini asoslash topshiriqlari orqali o'z fikrini bildiradilar

Bu kabi topshiriqlar nafaqat o'qish ko'nikmasini shakllantiradi, balki o'quvchilarning tafakkur darajasini ham rivojlantiradi. Shu orqali o'quvchida savodxonlik faqat texnik jarayon emas, balki tafakkuriy faoliyat sifatida qaraladi. Blum taksonomiyasi asosida darslarni rejalashtirish o'qituvchidan maqsadli yondashuvni talab qiladi. Har bir darsda quyidagi yondashuvlarni amalga oshirish muhim[7]:

- O'quv maqsadlarini aniq belgilash – har bir darsda qaysi kognitiv bosqichga urg'u berilishi rejalashtiriladi.
- Bosqichma-bosqich topshiriqlar tuzish – birinchi navbatda bilish va tushunish bosqichidan boshlab, asta-sekin yuqoriroq fikrlash bosqichlariga o'tiladi.
- O'quvchilarni faollikka jalb etish – tahlil, sintez va baholash bosqichlari orqali o'quvchi o'z fikrini bildirishga, mustaqil qaror chiqarishga undaladi.
- Refleksiya va tahlil – dars so'ngida o'quvchilar bajarilgan vazifalarning foydasini tahlil qiladi, o'z xatolarini anglaydi.

Namuna: "Bo'ri va echki bolalari" matni asosida dars tashkil etish. Ushbu ertak asosida quyidagi tarzda Blum taksonomiyasi bosqichlari tatbiq qilinishi mumkin: Bilish: Ertakdagi asosiy personajlarni sanab bering; Tushunish: Bo'rining nima sababdan uyni buzmoqchi bo'lganini tushuntirib bering; Qo'llash: Siz echkicha bo'lsangiz, qanday harakat qilgan bo'lardingiz?; Tahlil: Echki bolalarining xatti-harakatlarida qanday kamchiliklar bo'lgan?; Sintez: Ushbu ertakka boshqa yakun yarating yoki boshqa hayvonlar ishtirokidagi ertak tuzing; Baholash: Bo'rining harakatlariga qanday baho berasiz? Sababini ayting. Bu tarzda yondashuv nafaqat o'quvchining o'qish ko'nikmasini, balki tafakkurini, axloqiy baholashini, ijodiy fikrlashini rivojlantiradi[2].

Xulosa qilib aytganda, BLUM taksonomiyasini boshlang'ich sinf darslarida qo'llash o'quvchilarga matnni faqat eslab qolish emas, balki uni tahlil qilish, o'z fikrlarini ifodalash va yangi g'oyalar yaratishga yordam beradi. Bu o'quvchilarga mustaqil fikrlash va o'rganishni chuqurlashtirishga, o'quvchilarning fikrlash darajasini tizimli va izchil rivojlantirishga xizmat qiladi.

Taksonomiyaning har bir bosqichi o'ziga xos pedagogik maqsadni ko'zlagani sababli, o'qituvchi dars jarayonida bu bosqichlarni ongli ravishda qo'llashi, har bir topshiriqni shu asosda ishlab chiqishi lozim. Shu tariqa o'quvchilarda o'qishga bo'lgan motivatsiya, mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va ijodiy tafakkur kabi muhim kompetensiyalar shakllanadi. Bu esa keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
2. Jumayeva, H.G. (2023). Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini takomillashtirish metodikasi. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(6), 45–47.
3. Azimova, I. va boshq. (2021). *Ona tili va o'qish savodxonligi: 2-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma*. Toshkent: Respublika ta'lim markazi.
4. Anderson, L.W., & Krathwohl, D.R. (2001). *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives*. New York: Longman.
5. Marzano, R.J., & Kendall, J.S. (2007). *The New Taxonomy of Educational Objectives*. Thousand Oaks: Corwin Press.
6. Сидоренко, Е.В. (2018). Применение таксономии Блума в современном образовании. *Педагогическое образование*, №4, 55–60.
7. Karimova, N. (2022). Boshlang'ich ta'limda zamonaviy metodik yondashuvlar. *Ta'lim va taraqqiyot*, №2, 38–41.
8. Mavlonova, R.X. (2020). Boshlang'ich sinf darslarida kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish yo'llari. *Pedagogik mahorat*, №1, 24–27.
9. Raxmonov, B. (2021). O'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish. *Boshlang'ich ta'lim metodikasi*, №3, 31–34.